



Tibbiy maqsadlarda paramediklarda ingliz tilini o'qitishning pedagogik asoslari

Isroilova Dildora Muxtorovna –

O'zbekiston Jahon tillari universiteti,

Ingliz tili №1 fakulteti, Ingliz tili amaliy fanlar №1 kafedrası professori,
pedagogika fanlari doktori (DSc) E-mail: isroilovadildora@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-1022-2613>

Yaxshiboyeva Gulbahor Oybek qizi –

Andijon davlat tibbiyot instituti,

pedagogika fanlari doktori, (DSc)

E-mail: yakhsiboyevaguli@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-1122-2615>

Annotatsiya. Zamonaviy tibbiy ta'lim tizimi talabalardan faqat nazariy bilimlar va amaliy malakalarga ega bo'lishni emas, balki xalqaro professional muhitda samarali muloqot qila olishni ham talab etadi. Ayniqsa, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish globallashtirish sharoitida muhim strategik yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ingliz tili xalqaro ilmiy-ma'lumotlar almashinuvida asosiy vosita bo'lishi bilan birga, tibbiyot sohasiga xos terminlar va kasbiy leksikani o'z ichiga olgan muhim kommunikativ resurs hisoblanadi. Shu jihatdan, tibbiy ingliz tilini o'rgatish jarayoni o'zining terminologik aniqligi, kasbiy muloqotga qo'yiladigan yuqori talablar hamda sog'liqni saqlash tizimining o'ziga xos mazmuni bilan umumiy chet tillarni o'qitishdan tubdan farqlanadi.

Kalit so'zlar: task-based learning, simulyatsion treninglar, audio-video texnologiyalar, kontekstual ta'lim, kommunikativ yondashuv, kompetensiyaga asoslangan yondashuv.

Педагогические основы обучения английскому языку парамедиков в медицинских целях

Аннотация. Современная система медицинского образования требует от студентов не только теоретических знаний и практических навыков, но и способности эффективно общаться в международной профессиональной среде. В условиях глобализации преподавание английского языка в медицинских высших учебных заведениях признаётся одним из приоритетных стратегических направлений. Английский язык является основным средством международного научного и информационного обмена, а также важным коммуникативным ресурсом, включающим профессиональную лексику и специализированную медицинскую терминологию. В связи с этим обучение медицинскому английскому языку существенно отличается от преподавания общих иностранных языков, поскольку требует высокой терминологической точности, профессионально ориентированного общения и учёта специфики системы здравоохранения.

Ключевые слова: обучение на основе заданий (task-based learning), симуляционные тренинги, аудио-видео технологии, контекстное обучение, коммуникативный подход, компетентностный подход.

Pedagogical foundations of teaching english to paramedics for medical purposes

Annotation. The modern medical education system requires students not only to possess theoretical knowledge and practical skills, but also to be able to communicate effectively in an international professional environment. In the context of globalization, teaching English in medical higher education institutions is recognized as one of the key strategic priorities. English serves as the primary language of international scientific and informational exchange and represents an essential communicative resource that incorporates specialized medical terminology and professional vocabulary. Therefore, teaching Medical English significantly differs from teaching general foreign languages due to its terminological precision, high professional communication requirements, and the specific content of the healthcare system.

Keywords: task-based learning, simulation training, audio-video technologies, contextual learning, communicative approach, competency-based approach.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'limni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosida oliy ta'lim tizimi tubdan modernizatsiya qilinib, ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlar, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash modeli hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar joriy etildi. Ushbu islohotlar doirasida tibbiy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni, xususan ingliz tilini o'qitishga bo'lgan yondashuvlar ham sifat jihatdan yangilandi.

Globallashuv jarayonlari, tibbiyot sohasida xalqaro hamkorlikning kengayishi, xorijiy ilmiy axborotlar oqimining ortishi tibbiyot xodimlaridan ingliz tilini nafaqat umumiy muloqot vositasi, balki **kasbiy faoliyat tili** sifatida egallashni talab qilmoqda. Xususan, ilmiy maqolalar, klinik tavsiyalar, diagnostik protokollar va dori vositalari bo'yicha yo'riqnomalarning aksariyati ingliz tilida chop etilishi tibbiyot talabalari, ayniqsa parameditsina yo'nalishida tahsil olayotgan yosh mutaxassislar uchun til kompetensiyasini shakllantirishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Parameditsina yo'nalishi vakillari bevosita bemor bilan muloqotda bo'lishi, tezkor qarorlar qabul qilishi hamda ko'pincha xorijiy mutaxassislar yoki texnologiyalar bilan ishlashi sababli, ularning ingliz tilidagi kasbiy muloqotga tayyorgarligi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, parameditsina yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitish jarayonini ilmiy asoslangan, amaliyotga yo'naltirilgan va kompetentlik yondashuvi asosida tashkil etish zarurati yuzaga kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tibbiy ingliz tili ESP (English for Specific Purposes) doirasida shakllanib, o'qitish jarayoni kasbiy ehtiyojlar (needs analysis), kontekst, janr (genre) va kommunikativ vazifalar asosida qurilishi lozim. ESP yondashuvida til "umumiy bilim" sifatida emas, balki talabaning kelgusidagi kasbiy faoliyatida real qo'llaniladigan kommunikativ resurs sifatida talqin etiladi. Shu sababli tibbiy ingliz tilini o'qitish mazmuni klinik muloqot (anamnez yig'ish, shikoyatni aniqlash, maslahat berish), tibbiy hujjatlar bilan ishlash (hisobot, protokol, yo'llanma), ilmiy matnlarni o'qish va tahlil qilish (maqola, klinik tavsiya, yo'riqnoma) kabi aniq professional nutq vaziyatlari bilan bevosita bog'lanishi talab etiladi. Mahalliy tadqiqotlarda ham tibbiyot yo'nalishidagi talabalar uchun ingliz tilini o'qitishning samaradorligi, avvalo, kommunikativ yondashuv va interaktiv metodlar bilan izohlanadi. Xususan, N.Rajabova ishlarida tibbiyot yo'nalishidagi talabalar uchun ingliz tilini o'qitishda real muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar, role-play va muammoli vaziyatlar orqali o'qitish, shuningdek, terminologiyani o'zlashtirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar (multimedia, simulyatsiya, modul asosida o'qitish)dan foydalanish mexanizmlari asoslab beriladi. Bu yondashuvda terminlar "yodlash obyekti" emas, balki kontekstda ishlatiladigan kasbiy birlik sifatida shakllantiriladi: atama–ma'no–vaziyat–nutq modeli.

O'tkirjon Akramov tibbiy ingliz tilini o'qitish metodologiyasini tahlil qilarkan, til o'rgatish jarayonida kasbiy kontekstning hal qiluvchi o'rnini ta'kidlaydi. Ya'ni, talaba tibbiy terminni faqat lug'aviy ma'noda emas, balki klinik muloqotdagi funksiyasi (bemor shikoyatini aniqlash, simptomni tavsiflash, ko'rsatma berish, xavf omillarini so'rash) orqali o'zlashtirishi kerak. Akramov yondashuvida ilmiy matnlar bilan ishlash ham alohida ahamiyat kasb etadi: tibbiyotdagi zamonaviy axborot oqimi (maqolalar, klinik protokollar) bilan ishlash talabalardan o'qish strategiyalari, annotatsiya qilish, asosiy g'oyani ajratish va terminlarni diskursda anglashni talab qiladi. Vladimir Shevchenko tadqiqotlari esa tibbiy ingliz tilini o'qitishda terminologik va leksikografik yondashuvlarning ilmiy-metodik asoslarini ochib beradi. Uning qarashlarida tibbiy tilning leksik tizimi (qisqartmalar, xalqaro terminlar, lotin/grek ildizli birliklar, ko'plik shakllari, eponimlar) va ularni o'qitishning tartibli modeli muhim. Bunda terminologik birliklarni oddiy ro'yxat tarzida emas, balki semantik maydonlar, so'z yasallashi modeli (prefix/suffix), kolokatsiyalar (masalan,

administer medication, take vitals, assess airway) hamda “klinik nutq qoliplari” orqali o'rgatish samaraliroq ekani qayd etiladi.

Shuningdek, xorijiy olimlar (G.Taylor, H.Hutchinson, M.Dudley-Evans va boshqalar) tibbiy ingliz tilini ESP doirasida o'qitishda bir qator umumiy metodik tamoyillarni ilgari suradi. Ularning konseptual yondashuvida tibbiy ingliz tili quyidagi mezonlar bilan ajralib turadi:

- muloqotga yo'naltirilganlik;
- kasbiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar;
- interaktiv va kontekstual metodlardan foydalanish.

Mazkur tadqiqotda kommunikativ yondashuv, task-based learning, kontekstual o'qitish, simulyatsion mashg'ulotlar va kompetentlik yondashuvi metodik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqot metodlari sifatida ilmiy manbalarni tahlil qilish, taqqoslash, tizimlashtirish va pedagogik modellashtirishdan foydalanildi.

Paramedicsina yo'nalishi talabalarini tibbiy ingliz tiliga o'qitishning pedagogik asoslari

Pedagogik asoslar	Tavsif
Tibbiy maxsus leksikani o'rgatish	Kasbiy atamalar, bemor bilan muloqot, diagnostika va dori vositalari bo'yicha terminlarni o'zlashtirish
Interaktiv va amaliy metodlar	Rolli o'yinlar, simulyatsiyalar, klinik holatlar asosida mashg'ulotlar
Didaktik materiallarni moslashtirish	Tibbiy matnlar, audio-video materiallar, onlayn platformalar
Kasbiy kontekstda o'qitish	Tez yordam, tibbiy muolajalar, kasbiy muloqot senariylari
Kompetentlik yondashuvi	Tilni bilim emas, balki kasbiy kompetensiya sifatida shakllantirish
Individual yondashuv	Talabalarning til va kasbiy tayyorgarligiga moslashtirish
Motivatsiyani oshirish	Zamonaviy tibbiy mavzular va real ehtiyojlarga asoslash

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, paramedicsina yo'nalishida ingliz tilini o'qitish jarayoni bir qator tizimli va metodik muammolar bilan tavsiflanadi. Avvalo, real kasbiy ehtiyojlar bilan mavjud o'quv dasturlari o'rtasida sezilarli tafovut mavjudligi aniqlanadi. Amaliy faoliyatda paramediklar tezkor muloqot, aniqlik va terminologik to'g'rilikni talab etuvchi vaziyatlarda ishlashlariga to'g'ri kelsa-da, o'quv dasturlarida bu kabi real klinik holatlarni aks ettiruvchi topshiriqlar yetarli darajada o'rin olmagan. Natijada talabalar nazariy til bilimiga ega bo'lsalar-da, uni kasbiy muloqotda qo'llashda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Shuningdek, fanlararo integratsiyaning yetarli emasligi ham muhim metodik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ingliz tili mashg'ulotlari anatomiya, fiziologiya, patologiya va shoshilinch tibbiy yordam kabi fanlar bilan uzviy bog'lanmagan holda olib borilishi, talabalarning tibbiy terminlarni kontekstda anglash va amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini cheklaydi. Bu holat til o'rganish jarayonining fragmentarlashuviga olib kelib, kasbiy kompetensiyaning yaxlit shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Bundan tashqari, ingliz tili faniga ajratilgan dars soatlarining cheklanganligi talabalar til kompetensiyasining yetarli darajada rivojlanmasligiga sabab bo'lmoqda. Cheklangan vaqt

sharoitida o'qitish jarayoni ko'pincha leksik-grammatik materialni tezkor o'zlashtirishga yo'naltiriladi, natijada kommunikativ mashg'ulotlar, simulyatsiyalar va amaliy muloqot vaziyatlariga yetarli e'tibor qaratilmaydi. Bu esa tilni funksional va kasbiy maqsadlarda qo'llash imkoniyatlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, ingliz tilining tibbiy xususiyatlari ham o'qitish jarayonida alohida metodik yondashuvni talab etadi. Xususan, tibbiy diskursda majhul nisbatning keng qo'llanilishi (masalan, "The patient was admitted", "Medication was administered"), otlarning fe'llarga nisbatan ustunligi, shuningdek, Present Simple va Present Perfect zamonlarining faol ishlatilishi til o'rganuvchilardan grammatik birliklarni faqat qoida sifatida emas, balki klinik muloqotdagi funksiyasi orqali o'zlashtirishni talab qiladi. Ushbu grammatik xususiyatlarni e'tibordan chetda qoldirish tibbiy matnlarni to'g'ri tushunish va bemor bilan samarali muloqot olib borishga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Tibbiy ingliz tilini o'rganish jarayonida terminologik glossariylar bilan tizimli ishlash, kasbiy etik muloqot shakllarini shakllantirish, hamda klinik vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlarni tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Terminlarni kontekstda o'rganish, ularning semantik maydoni va kollokatsiyalarini tahlil qilish talabalar uchun terminologiyani chuqur va ongli o'zlashtirish imkonini beradi. Klinik vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlar esa talabalarining til bilimlarini real amaliy faoliyat bilan integratsiyalashga xizmat qilib, ularning kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

Paramedicsina talabalarini ingliz tiliga o'qitishda tavsiya etiladigan metodlar.

Metodlar	Mazmuni
Simulyatsiya va rolli o'yinlar	Klinik muloqot senariylari asosida tilni o'zlashtirish
Case study	Bemor tarixi va simptomlarini tahlil qilish
Multimediya texnologiyalari	Video intervyular, subtitrli klinik suhbatlar
Task-based learning	Kasbiy vazifalar asosida til ko'nikmalarini rivojlantirish
Madaniyatlararo kompetensiya	Turli madaniyatdagi bemorlar bilan ishlash etiketi

Natijalar shuni ko'rsatadiki, mazkur metodlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarining kasbiy muloqot ko'nikmalari, terminologik bilimlari va kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, paramedicsina yo'nalishida ingliz tilini o'qitish jarayoni zamonaviy tibbiyot ta'limining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ingliz tilini kasbiy maqsadlarda o'rgatish talabalarni global tibbiy axborot maydoniga integratsiyalashuvi, xalqaro amaliyotlarda ishtirok etishi hamda professional faoliyatida samarali muloqot olib borishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kommunikativ, vazifaga asoslangan va simulyatsion metodlar uyg'unligida tashkil etilgan ta'lim jarayoni paramedicsina talabalarida kasbiy til kompetensiyasini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega. Shu bois, paramedicsina yo'nalishi uchun maxsus moslashtirilgan o'quv dasturlari, darsliklar va metodik qo'llanmalarni ishlab chiqish hamda fanlararo integratsiyani kuchaytirish istiqboldagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.A.Abdurahmonov, Tibbiyot ta'limini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari. Toshkent: Ilm nashriyoti, –2021.
2. M.A.Abdurahmonov, “Xalqaro akademik mobillik va tibbiy innovatsiyalar”. Chet tillari va ixtisosliklar, 2021, №1, 27–32.
3. В.Г.Афанасев, Современная система образования: проблема интернационализации. Москва: Образование и наука.
4. P.G.Altbach, L.Reisberg, L.E.Rumbley Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution. – UNESCO, 2009.
5. Azimova D.S. Oliy ta'lim tizimida Boloniya jarayoni: muammo va yechimlar. – “Ilm-fan va taraqqiyot” jurnali, 2021, №2. – B. 48-52.
6. W.Baker, G.Saldanha, Routledge Encyclopedia of Translation Studies. Routledge, –2021.
7. V.I.Baydenko, M.A.Kasevich, R.V.Stavruk, “Akademik mobillik va kasbiy ta'limda til o'rgatish strategiyalari”. Rossiya oliy ta'limi jurnali, 2019, №6, 15–21.
8. Bologna Process – European Higher Education Area. <https://www.ehea.info>